



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No2



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, fevral.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikrarov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA LOYIHALARINI KREDITLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	40
Faxriddinov Temur Faxriddin o'g'li	
TEMIR YO'L YO'LLARINI TA'MIRLASH KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI.....	46
Allabergenov Sherzod Maksudbayevich	
BANKLARNI TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA INVESTITSION KREDITLASHNING XORIJ TAJRIBASI.....	51
Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
O'ZBEKISTONDA BUDJET OCHIQLIGINI TA'MINLASH BO'YICHA QONUNCHILIK BAZASINING EVOLYUTSIYASI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	55
Mamanov Alisher Umbarovich	
ENERGETIKA TARMOG'I KORXONALARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH YO'LLARI.....	60
Xamdamova Gavxar Absamatovna	
SMART UNIVERSITET MODELINING XALQARO TAJRIBASI VA UNI YANGI O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIGA MOSLASHTIRISH MASALALARI.....	65
Saloxiddinova Sitora Baxodir qizi	
IJTIMOIIY OBYEKTlarda QURILISH XIZMATLARINI MOLiyALASHTIRISHNING NAZARIY – ASOSIY TAMOIYILLARI.....	68
Gapparov Azim Qayumovich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING ISHLAB CHIQRISH FAOLIYATIGA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI JORIY ETISH ORQALI RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASH.....	72
Zaripov Shoxboz Alijon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA MASOFAVIY BANK XIZMATLARINING IQTISODIY VA IJTIMOIIY BARQARORLIKKA TA'SIRI.....	75
Kolmatova Asila Menglimurod qizi	
РОЛЬ GREEN BONDS В МЕЖДУНАРОДНОЙ ФИНАНСОВОЙ СТРАТЕГИИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ.....	81
Н.Т. Бекназарова	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA EKOLOGIK BOSHQARUV VA AUDIT.....	86
Shaymatova Nargiza Ashurovna	
NORASMIY IQTISODIYOTNING MAVJUDLIGINING NAZARIY MASALALARI VA UNI ANIQLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI.....	93
Alimardonov G'ayratjon Nuraliyevich	
DIGITAL TWIN-BASED DECISION SUPPORT FOR COST OPTIMIZATION AND RISK MANAGEMENT IN INFRASTRUCTURE SYSTEMS.....	99
Nelyufar Umarovna Dadabayeva	
PAXTA BO'LAKCHASINING OG'MA TO'RLI YUZA SIRTI BO'YLAB HAVO OQIMI TA'SIRIDAGI HARAKATINING MATEMATIK MODELI.....	108
Karimov Abdusamat	
АДАПТИВНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ К ВНЕШНИМ РИСКАМ И ГЕОЭКОНОМИЧЕСКИМ ТЕНДЕНЦИЯМ.....	115
Бабаджанов Шухрат Атахмович	
“TIBBIYOT BOZORINING UZLUKSIZ RIVOJLANISHI UCHUN MEKANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH YONDASHUVLARI”.....	120
Abdumalikov Shoxjahon Jaloliddin o'g'li	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MEHNAT BOZORI RIVOJLANISHIDAGI ROLI VA BANDLIKKA TA'SIRI.....	124
Egamberdiyev Abdujabbor Xusanovich	



XORAZM VILOYATIDA ETNOGRAFIK TURIZMNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINING AHAMIYATI	129
Ro'zimatova Shaxlo Baltaboy qizi	
THE FEAR OF MISSING OUT (FOMO) EFFECT IN ADVERTISING AND ITS NEUROPSYCHOLOGICAL IMPACT ON IMPULSE BUYING	134
Negmatov Nodir Nozimovich	
O'ZBEKISTONDA TRANSPORT XIZMATINI TASHKIL ETISHNING ASOSIY IQTISODIY KO'RSATKICHLARI VA TENDENSIYALARI TAHLILI.....	139
Aytiyeva Sevara	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	144
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
YASHIL IQTISODIYOTNING MOHIYATI VA O'ZBEKISTON UCHUN AHAMIYATI	149
Abdullayeva Matluba Nematovna, Nuriddinov Kamoliddin Faxriddin o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA KICHIK KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	155
Axmedov Sanjar Temur o'g'li	
POPULATION IMPACT ON CONSUMER CULTURE AND NATIONAL ECONOMIC GROWTH.....	160
Rustamov Sherov Oblokulovich	
AVTOTRANSPORT KORXONALARINING IQTISODIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI VA ULARNI YAXSHILASHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	164
Laylo Akbarova, Komolov Adxam Dilshod o'g'li	
MODELING THE DIFFUSION OF DIGITAL BANKING ADOPTION IN UZBEKISTAN: EVIDENCE FROM TBC BANK USING THE BASS DIFFUSION MODEL AND A HYBRID REGRESSION APPROACH	169
Feruza Nabieva	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA EKOLOGIK XARAJATLARNI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISH VA BAHOLASH	176
Rabbimov Elbek Abdulloyevich, G'afforov Ilhom Ilyosjonovich, Ergashev Olloyor Furqat o'g'li	
O'ZBEKISTONNING YANGI BOZORLARGA CHIQUISHIDA FAOL MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING INTEGRALLASHGAN MODELI.....	183
Baqoyev Sunnatillo Burxon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIY-KONSEPTUAL ASOSLANISHI.....	188
Salaydinov Shodiyor Nizom o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI SIFATINI OSHIRISH VA KREDIT RISKINI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	194
Turg'unov Nodirbek Muminjanovich	
SANOAT KORXONALARI TUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMI	198
Jabborov Elbek Erkin o'g'li	
SOLIQ STAVKALARINI TABAQALASHTIRISHNING TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANISHGA TA'SIRI.....	202
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
MINTAQALAR IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI TAFOVUTLARNI KAMAYTIRISHNI TA'MINLASHDAGI XORIJ MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	208
Egamov Temur Muzaffarovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI MOLYAVIY RAG'BATLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	213
Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA XIZMATLAR SOHASINING O'RNI VA OBYEKTIV ZARURLIGI.....	217
Achilova Firuza Kurbanovna	
INVESTITSIYALARNI JALB ETISH ORQALI MAXSUS IQTISODIY ZONALARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	222
Ergashev Olim	



KICHIK BIZNES INNOVATSION FAOLIYATINING RIVOJLANISHIDAGI ASOSIY TENDENSIYALAR	227
Amirov Zubaydulla Toir o'g'li	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA YOSHLAR TADBIRKORLIGINING O'RNI VA AHAMIYATI	233
Isakjanova Saboxat Muhamedovna	
KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDA AKSIYADORLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH MEXANIZMLARINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	238
Xakimov Uchkun Xamitovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MILLIY MAKROIQTISODIY SIYOSATNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	242
Mardanova Ra'no Isakovna	
XUSUSIY VA DAVLAT SHIFOXONALARI UCHUN RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINI QIYOSIY TAHLIL	246
Yakubov Temur G'anibekovich	
RAQAMLI SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMIDA RESURS SAMARADORLIGI VA IQTISODIY NATIJADORLIK MODELI	250
Ziyodullayev Qahramon	
"MILLIY TURIZM SITUATSION-MONITORING MARKAZI" VA "YASHIL TUROPERATORLAR" FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH ISTIQBOLLARI	254
Toshev Akmal Salimovich	
RISK-MENEJMENT VA MOLIYAVIY BARQARORLIK O'ZARO BOG'LIQLIGINING KONSEPTUAL MODELINI SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI	261
Madaminov Bekzod Allayarovich	
O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOT: BAHOLASH METODOLOGIYASI, DINAMIKASI VA QISQARTIRISH ISTIQBOLLARI (1996 - 2026-YILLAR TAHLILI)	266
Djumanova Rano Fayzullayevna	
OLIY TA'LIM SIFATINI BAHOLASHDA MAJMUALI DIAGNOSTIK MODELNING AMAL QILISH XUSUSIYATLARI	272
Xo'jaxonov Ma'rufxon Xamidxonovich	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI	278
Vafiyev Raxim Xalimjonovich	
INVESTITSIYA LOYIHALARINI KREDITLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	282
Nigora Nurmatova	
BANK SEKTORINING INVESTITSIYA OQIMLARINI BOSHQARISHDAGI STRATEGIK O'RNI	287
Abdumavlonov Abdumutal Abdumajid o'g'li	
O'ZBEKISTON KORXONALARIDA UZOQ MUDDATLI MOLIYAVIY INVESTITSIYALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	291
Allabergenova Nilufar Shermetovna	
O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA TA'MINOTLI YIRIK KREDITLAR ASOSIDA QIMMATLI QOG'OZLAR CHIQRISH ORQALI RESURS BAZASINI KENGAYTIRISH MEXANIZMLARI	298
Ahmedov Akbarali Sultonmurodovich	
"MINTAQA SANOATI SALOHİYATIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI"	306
Abdinazarov Xusan Shaymanovich	
BUDJET TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA MAJBURIYATLAR: MAZMUNI, TURLARI VA TARKIBI	309
Jabbarova Charos Aminovna	
ATROF-MUHIT VA EKOLOGIK IQTISODIYOT: TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA RESURLARDAN OQILONA FOYDALANISH VA UNING RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH	316
Alikulov Samar Abdirashidovich	
O'ZBEKISTON TURIZM INDUSTRIYASI RIVOJLANISHIDA FORSAYT TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH	322
Turdibekov Xasan Ibragimovich	
АНАЛИЗ ДЕБИТОРСКОЙ И КРЕДИТОРСКОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТИ ХОЗЯЙСТВУЮЩЕГО СУБЪЕКТА	329
Камолова Феруза Кахрамоновна	



TASHQI QARZNING IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI: QARZ BARQARORLIGINI BAHOLASH MODELLARI ASOSIDA O'ZBEKISTON MISOLIDA TAHLIL	333
Olloyorova Kumushoy Ahmad qizi, Tashmuxeamedova Yayra Atxamovna	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQLARNI TARTIBGA SOLISHNING TAHLILI	339
Kudiyarov Kishibay Ramatullaevich	
KORXONALAR FAOLIYATINING IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING XORIJ TAJIRIBASI	343
Iminova Nargizaxon Akramovna	
SUG'URTA KOMPANIYALARINING TO'LOVGA QOBILIYATLILIGINI BOSHQARISHDA RISKLAR VA RISK-MENEJMENTNING O'RNI	350
Xalikulova Shirin Utkir qizi	
BUDJET TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA HISOBOTINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISHDAGI MUAMMOLAR VA KAMCHILIKLAR	354
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Xasanboyeva Muyassar Ubaydullayevna	
XUSUSIY KORXONALARDA KADRLAR MENEJMENTI SAMARADORLIGINI OSHIRISH	358
Alimova Dildora Damirovna	
BANK TRANSFORMATSIYASI TUSHUNCHASI VA UNING MENEJMENTDAGI O'RNI	363
Rajabov Oybek Panjievich	
O'ZBEKISTON OZIQ-OVQAT SANOATIDA ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	367
Eshtemirova Anora Norboy qizi	
BOZOR KONYUNKTURASIGA MOS PIYOZ YETISHTIRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	371
Sadikova Shohida Obidqul qizi	
HUDUDLARDA MAISHIY XIZMATLAR SOHASINI KLASSTERLASH VA RESURS SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	375
Normurodova Zebo Eshmaxmatovna	
XUSUSIY VA KORPORATIV TUZILMALARDA AUDITORLIK TEKSHIRUVI HAMDA AUDITORLIK XULOSASINI SHAKLLANTIRISH AMALIYOTI	380
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Ubaydullayev Toxirjon Abdullajanovich	
YIRIK VA KICHIK BIZNES O'RTASIDA KOOPERATSIYA MUNOSABATLARINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	385
Nasirova Kamola Alimovna	
MOLIYAVIY HISOBOTLARNING QAROR QABUL QILISH JARAYONIDAGI IQTISODIY ROLI	394
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Yahyayeva Ra'no Raximovna	
DIRECTIONS FOR IMPROVING INVESTMENT POLICY IN THE CONDITIONS OF DIGITAL ECONOMY (EXPERIENCE OF UZBEKISTAN)	400
Khatamov Nurbek Achildiyevich, Sharifi Abdul Fatah	
DAVLATNING FISKAL VA MONETAR SIYOSATI UYG'UNLIGINING IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRINI BAHOLASH	405
Uralov Shavkat Maxramovich	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA BIZNES JARAYONLARINI AVTOMATLASHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	410
Yusubov Muzaffar Alimbayevich	
BANKLARDA RAQAMLASHTIRISH JARAYONINING MIJOZLAR QONIQLASH DARAJASIGA TA'SIRI	414
Ro'ziboyev Shuxrat Komilovich	
BOJ-TARIF SIYOSATI METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-AMALIY YO'NALISHLAR	418
Pardayev Ilhomjon G'ulom o'g'li	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MOLIYAVIY BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISHDA BOSHQARUV KADRLARINING KOMPETENSIYASI	424
Mahsutaliyev Abdusalom Hasanovich	



ZIYORAT TURIZMIDA DESTINATSIYA VA GEOAXBOROT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	433
Qosimov Jahongir Ro'ziboyevich, Suyunova Nilufar	
YEVROPA DAVLATLARIDAGI KORXONALARDA MOLIVAVIY REJALASHTIRISH AMALIYOTINING TAHLILI VA ULARDAN O'ZBEKISTON MOLIVA TIZIMIDA QO'LLASH MASALALARI	440
Pardayev Jamshid Muzaffarovich	
TASHKILOTNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYA LOYIHALARINI BOSHQARISH	446
Xasanov Odilxon Kaxxorovich	
O'ZBEKISTON TURIZM SANOATINING XALQARO RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA STRATEGIK MARKETING TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH	450
Kobilova Shozoda Timurovna, Isxakova Sarvar Ayubovna	
THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN LABOR THEORY: EVOLUTION, CHALLENGES AND FUTURE PROSPECTS	456
Tukhliyev Bakhodir Adinaevich	
ОСОБЕННОСТИ ПРОЦЕССА ПЕРВОГО ПРИМЕНЕНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ В СИСТЕМЕ УЧЕТА И ОТЧЕТНОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	460
Астанов Зафар Муродуллаевич	
TA'LIM MUASSASALARIDA O'QITISH SIFATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR PLATFORMALARINI YARATISH VA ULARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	466
To'xtamisheva Dilrabo Shermonovna	
KICHIK VA O'RTA BIZNESNI YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION MEXANIZMLARI	472
Norboyev Sarvar Azodovich	
MINTAQAVIY RIVOJLANISHDA INVESTITSİYALARDAN SAMARALI FOYDALANISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	476
Xatamova Manzura Ochilidiyevna, Safarov Botir Isaq o'g'li	
MAXSUS IQTISODIY ZONALARDA SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI	482
To'rayeva Nafisa Odiljonovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA RAQAMLI TO'LOV TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISHNING PUL MUOMALASI BARQARORLIGIGA TA'SIRINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	487
Xazratkulov O'ktamjon Xikmatullayevich	
O'ZBEKISTONDA TAKSI XIZMATLARI BOZORIDA INSTITUSIONAL ISLOHOTLARNING IQTISODIY AHAMIYATI	491
Jaloliddinov Anvar Jaloliddin o'g'li	
EKOLOGIK TANGLIK SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA YERLARDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH	497
Kudiyarov Aybek Alisherovich	
BANK LIKVIDLIGINI BOSHQARISHDA ZAMONAVIY METODOLOGIK YONDASHUVLAR	502
Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li	
IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA SANOAT ISHLAB CHIQRISH TARKIBIY O'ZGARISHLARNI BAHOLASH	509
Almardanova Farzona Tulkin qizi, Kasimov Azamat Abdurkarimovich	
QUYI AMUDARYO IQTISODIY MINTAQASI CHEGARABO'YI HUDUDLARINING TURISTIK IMKONIYATLARI	515
Djumabayeva Shaira Xalillayevna	
SURXONDARYO VILOYATIDA ULGURJI SAVDO HAJMI KO'RSATKICHLARINI ARIMA MODEL YORDAMIDA PROGNOZLASHTIRISH	522
Turotova Sohiba Djumanazarovna	
MINTAQADA INNOVATSION USULDA BALIQ YETISHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	531
Davranov Odil Jumanazarovich	



ISHLAB CHIQUARISH XARAJATLARI VA MAHSULOT TANNARXINING BOSHQARUV TAHLILINI AMALGA OSHIRISH USULLARI	538
Xamidova S.Ya.	
STRATEGIES FOR INCREASING COMPETITIVENESS IN DEVELOPING EXPORT ACTIVITIES IN SMALL ENTERPRISES.....	544
Nasridinova Shokhida Taufikovna	
SANOAT KORXONALARINI BOSHQARISHDA ILMIY-NAZARIY QARASHLAR	551
To'g'onov Ibroximxo'ja	
XUSUSIY TIJORAT BANKLARINING MOLIVAVIY RESURLARINI MUSTAHKAMLASHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI.....	555
Xolmatov Dilmurod Maxmudjonovich	
PENSIYA JAMG'ARMASI DAROMADLARI SHAKLLANISHI MASALALARI.....	562
Sherjonov Doniyor Saparbaevich	
EKSPORT VA VALYUTA OPERATSIYALARINING NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI.....	566
Sobirova Xilola Rustam qizi	
SURXONDARYO VILOYATIDA AHOI JON BOSHIGA CHAKANA SAVDO AYLANMASI HAJMI KO'RSATKICHLARINI ARIMA MODEL YORDAMIDA PROGNOZLASHTIRISH.....	571
Qudratova Shahnoza Shuhrat qizi	
XO'JALIK JAMIYATLARIDA BOSHQARUV ORGANLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	579
Valijonov Akmaljon	
XIZMATLAR IQTISODIYOTI VA UNI RIVOJLANISHNING NAZARIY ASOSLARI	584
Abduxoliqova Farangiz Abduxoliq qizi	
O'ZBEKISTONDA TRANSPORT-LOGISTIKA TIZIMI: HOZIRGI HOLATI, MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	588
Kuvandikov Shuxrat Oblokulovich, Abduxalikova Komila Abduxalikovna	
ИНТЕГРАЦИЯ МЕТОДОВ КАЛЬКУЛИРОВАНИЯ ПО ВИДАМ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ (АВС) И ЦЕЛЕВОГО КАЛЬКУЛИРОВАНИЯ (ТС) КАК ИНСТРУМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА	595
Киличева Ф.Б.	
GAZ TARMOQLARINI MODERNIZATSIYA QILISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	601
Xamidov Xayriddin Faxritdinovich	
SOLIQ NAZORATI TIZIMI: IQTISODIY MOHIYATI, SHAKLLARI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	606
Donaboyev Dostonbek Xusan o'g'li	
УПРАВЛЕНИЕ ПРИБЫЛЬЮ ПРЕДПРИЯТИЯ КАК ФАКТОР РОСТА ЕГО ФИНАНСОВОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ	610
Агзамов Авазхон Талгатович, Алиева Сусанна Сейрановна	
NOBANK KREDIT TASHKIOTLARINING AKTIV OPERATSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	618
Sardor Karimov Boydulla o'g'li	
INVESTITSION JOZIBADORLIKNING IQTISODIY MOHIYATI VA INVESTITSIYA NAZARIYALARI INTEGRATSIYASI	624
Abdullayeva Nilufar Ruslanovna	



INVESTITSION JOZIBADORLIKNING IQTISODIY MOHIYATI VA INVESTITSIYA NAZARIYALARI INTEGRATSIYASI

Abdullayeva Nilufar Ruslanovna

Urganch RANCH texnologiyalar universiteti

Iqtisodiyot kafedrası 2-kurs magistranti

Email: nilufar_ abdullaeva555@icloud.com

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda investitsion jozibadorlik tushunchasining nazariy mohiyati va uning evolyutsiyasi mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish kontekstida tahlil qilinadi. Ishda investitsion jozibadorlikka berilgan xorijiy va mahalliy olimlar ta'riflari tizimlashtirilib, ularning umumiy va farqli jihatlari aniqlanadi. Shuningdek, investitsion jozibadorlikning makro, mezo va mikro darajalarda shakllanish omillari kompleks yondashuv asosida yoritiladi. Tadqiqot natijalari hududiy va tarmoq darajasida investitsiya muhitini baholash hamda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiluvchi ilmiy xulosalarni shakllantirishga yo'naltirilgan.

Kalit so'zlar: investitsion jozibadorlik, investitsiya nazariyalari, mintaqaviy iqtisodiyot, iqtisodiy barqarorlik, makroiqtisodiy omillar, mezo-iqtisodiy omillar, mikro-iqtisodiy samaradorlik, institutsional muhit, investitsion risk va daromad, iqtisodiy ekotizim.

Abstract. In this study, the theoretical essence of the concept of investment attractiveness and the evolution of its development are analyzed in the context of regional economic growth. The paper systematizes definitions of investment attractiveness proposed by foreign and domestic scholars and identifies their common and distinctive features. In addition, the factors shaping investment attractiveness at the macro, meso, and micro levels are examined based on a comprehensive approach. The results of the study are aimed at forming scientific conclusions that contribute to assessing the investment environment at territorial and sectoral levels and ensuring sustainable economic growth.

Key words: investment attractiveness, investment theories, regional economy, regional economy, economic stability, macroeconomic factors, mesoeconomic factors, microeconomic efficiency, institutional environment, investment risk and return, economic ecosystem.

Аннотация. В данном исследовании анализируется теоретическая сущность понятия инвестиционной привлекательности и эволюция его развития в контексте регионального экономического роста. В работе систематизированы определения инвестиционной привлекательности, предложенные зарубежными и отечественными учёными, а также выявлены их общие и отличительные особенности. Кроме того, на основе комплексного подхода раскрываются факторы формирования инвестиционной привлекательности на макро-, мезо- и микроуровнях. Результаты исследования ориентированы на формирование научных выводов, направленных на оценку инвестиционного климата на территориальном и отраслевом уровнях, а также на обеспечение устойчивого экономического роста.

Ключевые слова: инвестиционная привлекательность, инвестиционные теории, региональная экономика, региональная экономика, экономическая устойчивость, макроэкономические факторы, мезоэкономические факторы, микроэкономическая эффективность, институциональная среда, инвестиционный риск и доходность, экономическая экосистема.

KIRISH

Mintaqaviy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va barqaror o'sish sur'atlariga erishish bugungi global iqtisodiy makonda investitsiya oqimlarini samarali jalb etish bilan uzviy bog'liqdir. Investitsiyalar faqat ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish vositasi emas, balki hududning iqtisodiy tuzilmasini yangilash, yangi texnologiyalar va ilmiy-innovatsion yechimlarni joriy etish, eksport imkoniyatlarini kuchaytirish orqali iqtisodiy tizimni transformatsiyalovchi strategik kuch sifatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan investitsion jozibadorlik tushunchasining mohiyati va uning evolyutsiyasini chuqur ilmiy tahlil qilish zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarning muhim metodologik yo'nalishlaridan biriga aylangan.



Investitsion jozibadorlik — investorlar nuqtayi nazaridan hududning kapital kiritish uchun maqbulligini belgilovchi institutsional, infratuzilmaviy, ijtimoiy, moliyaviy, resurs va innovatsion omillar yig'indisidir. Bunday yondashuv mintaqalarni faqat investitsiya sig'imi bo'yicha solishtirish emas, balki ularning investitsiyalarni qabul qiluvchi iqtisodiy ekotizim sifatidagi funksional imkoniyatlarini baholashni ham taqozo etadi. Mashhur iqtisodchi A. Marshall bu holatni quyidagicha ifodalaydi: "Kapitalning jamlanishi iqtisodiy faoliyatning yo'nalishini belgilaydi; iqtisodiy faoliyatning o'zgarishi esa jamiyatning butun ishlab chiqarish tuzilmasida yangi markazlar paydo bo'lishiga sabab bo'ladi." [1].

Ushbu yondashuv investitsiya oqimlari hudud iqtisodiyoti arxitekturasini o'zgartirishdagi asosiy mexanizm ekanini ko'rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab investitsiyalar hududiy raqobat, klaster iqtisodiyoti va fazoviy rivojlanish nazariyalari bilan bog'liq holda o'rganila boshlandi. Yirik strategik boshqaruv nazariyotchisi M. Porter investitsion jozibadorlikning shakllanishini quyidagicha talqin qiladi: "Hududning investitsion salohiyati makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning oddiy yig'indisi emas; u iqtisodiy subyektlarning, ilmiy-ta'lim muassasalarining va davlat institutlarining uyg'unlashgan hamkorligi natijasidir." [2]. Demak, investitsion jozibadorlik faqat soliq va moliyaviy imtiyozlar bilan emas, balki iqtisodiy ekotizimning kompleks integratsiyasi bilan belgilanadi.

Postindustrial bosqichga kelib, investitsiyalar geografiyasida ustuvorliklar tubdan o'zgardi. Endilikda kapital oqimlari arzon resurslar ortidan emas, balki yuqori texnologiyali infratuzilma, innovatsion muhit, intellektual resurslar va kafolatlangan institutsional barqarorlik tomon yo'nalmog'da. Bu borada P. Krugman fikri ilmiy adabiyotlarda ko'p qo'llanadi: "Investitsiyalar eng past xarajatli hududga emas, balki eng yuqori unumdorlik va eng tez innovatsion yangilanishni taklif qila oladigan hududga oqadi." [3]. Mazkur xulosa mintaqalarning investitsion jozibadorligini oshirishda raqobatbardosh iqtisodiy ekotizim yaratish hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Investitsion jozibadorlik tushunchasi iqtisodiy adabiyotlarda turli nazariy maktablar doirasida shakllanib, vaqt o'tishi bilan mazmunan kengayib borgan murakkab iqtisodiy kategoriya sifatida talqin etiladi. Dastlabki klassik iqtisodiy qarashlarda investitsiyalar kapital jamg'arilishi va ishlab chiqarish omillarining kengayishi bilan bog'liq holda izohlangan. Jumladan, Alfred Marshall kapital jamlanishi iqtisodiy faoliyat yo'nalishini belgilashini va investitsiya oqimlari ishlab chiqarish tuzilmasida yangi markazlarning shakllanishiga olib kelishini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv investitsion jozibadorlikning hududiy rivojlanish bilan uzviy bog'liqligini nazariy jihatdan asoslab beradi.

Keyingi davrda investitsiya qarorlarini tushuntirishda neoklassik va keynsiyona yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etdi. John Maynard Keynes investitsiya rag'batini kapitalning chegaraviy samaradorligi va foiz stavkalari o'rtasidagi nisbat bilan bog'lab, noaniqlik va kutilmalar investitsiya jarayonida muhim rol o'ynashini asoslab berdi [4]. Bu yondashuv investitsion jozibadorlikni baholashda risk va daromad nisbatlarini hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. Shuningdek, Irving Fisher investitsion qarorlarni kutilayotgan daromadlilik va kapital qiymati asosida baholab, investitsiya samaradorligini iqtisodiy hisob-kitoblar bilan asoslash mumkinligini ilgari suradi [5].

Institutsional iqtisodiyot vakillari investitsion jozibadorlikni huquqiy va boshqaruv muhitining sifati bilan bog'laydi. Xususan, Douglass North institutlarni iqtisodiy va ijtimoiy o'zaro munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy mexanizm sifatida talqin qilib, investitsiya risklarining kamayishi bevosita institutsional barqarorlikka bog'liqligini ta'kidlaydi [6]. Ushbu yondashuv investitsion jozibadorlikni faqat iqtisodiy ko'rsatkichlar emas, balki huquqiy ishonch darajasi orqali ham baholash zarurligini asoslaydi.

MDH mamlakatlari olimlari tomonidan investitsion jozibadorlik ko'pincha risk–daromad nisbatlari va moliyaviy barqarorlik nuqtayi nazaridan tadqiq etilgan. Tatiana Teplova investitsion jozibadorlikni investor uchun kutilayotgan daromad va ehtimoliy risklar muvozanatini aks ettiruvchi ko'rsatkich sifatida baholaydi [7]. Ushbu yondashuv investitsion qarorlarning subyektiv va obyektiv omillar bilan uyg'unligini ko'rsatadi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar tadqiqotlarida investitsion jozibadorlik masalasi hududiy rivojlanish va resurs salohiyati bilan uzviy bog'liq holda yoritiladi. Sherzod Mustafakulov investitsion jozibadorlikni hududning ijtimoiy-iqtisodiy quvvati va resurslardan foydalanish samaradorligi bilan belgilab, uni mintaqaviy iqtisodiy siyosatning muhim elementi sifatida talqin etadi [8].

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, investitsion jozibadorlik tushunchasi klassik daromadlilik yondashuvidan boshlab institutsional, innovatsion va hududiy omillarni o'zida mujassamlashtirgan kompleks iqtisodiy kategoriya darajasiga evolyutsiyalashgan. Shu bois investitsiya nazariyalarining integratsiyasi investitsion jozibadorlikning iqtisodiy mohiyatini chuqurroq anglash va uni makro, mezo hamda mikro darajalarda tizimli tahlil qilish uchun mustahkam ilmiy asos yaratadi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot investitsion jozibadorlikning iqtisodiy mohiyatini va investitsiya nazariyalarining integratsiyasini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda kompleks va tizimli yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosi sifatida klassik, neoklassik, keynsiyona hamda institutsional iqtisodiy nazariyalarning konseptual qoidalaridan foydalanildi. Ilmiy adabiyotlarni o'rganishda tahlil va sintez, induksiya va deduksiya usullari orqali investitsion jozibadorlikka oid qarashlar tizimlashtirildi. Xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan berilgan ta'riflarni solishtirishda taqqoslama tahlil usuli qo'llanildi. Investitsion jozibadorlikni makro, mezo va mikro darajalar kesimida o'rganishda tizimli yondashuv asosiy metodologik vosita sifatida xizmat qildi. Tadqiqot natijalari mantiqiy-analitik usul yordamida umumlashtirilib, nazariy xulosalar shakllantirildi.

TAHLILS VA NATIJALAR

Investitsion jozibadorlik tushunchasi iqtisodiy adabiyotlarda yagona va qat'iy ta'rifga ega bo'lmay, turli mualliflar tomonidan tadqiqot obyekti, tahlil darajasi hamda ilmiy yondashuviga qarab turlicha izohlanadi. Ayrim tadqiqotchilar ushbu kategoriyani investor manfaatlari va risk–daromad nisbatlari nuqtayi nazaridan talqin etsa, boshqalari uni iqtisodiy subyekt, hudud yoki tarmoqning resurs salohiyati va rivojlanish imkoniyatlari bilan bog'laydi. Bu esa investitsion jozibadorlikning murakkab va ko'p qirrali iqtisodiy mazmunga ega ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, investitsion jozibadorlikni aniqlashda faqat moliyaviy ko'rsatkichlar bilan cheklanib qolmasdan, institutsional muhit, boshqaruv sifati, bozor pozitsiyasi hamda strategik rivojlanish omillarini ham hisobga olish zarurati yuzaga keladi. Mazkur holat ushbu tushunchaning nafaqat iqtisodiy natijalar bilan, balki kelajakdagi barqaror rivojlanish istiqbollari bilan ham uzviy bog'liqligini ifodalaydi.

Shu sababli investitsion jozibadorlik tushunchasining ilmiy manbalarda berilgan turli ta'riflarini tizimli ravishda tahlil qilish va ularning umumiy hamda farqli jihatlarni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Quyidagi jadvalda xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan investitsion jozibadorlikka berilgan ta'riflar umumlashtirilgan holda keltirilgan bo'lib, ular ushbu tushunchaning mazmun-mohiyatini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi (1-jadval).

1-jadval. Investitsion jozibadorlik tushunchasiga berilgan ta'riflar tahlili¹

№	Tadqiqotchi nomi	Berilgan ta'rif
1.	L.S.Valinurova O.V.Kazanova	"Investitsion jozibadorlik — bu ob'jektning investitsiyalarga bo'lgan ehtiyoj va potentsial talabini belgilovchi ob'ektiv xususiyatlar, vositalar hamda imkoniyatlarning to'plami." [9]
2.	T.V.Teplova	"Investitsion jozibadorlik — bu aktivlarning ko'rsatkichi bo'lib, investorning kompaniyaga sarmoya kiritish darajasini risk–daromad (risk–return) kontekstida ifodalaydi." [10]
3.	V.V.Komarov	"Investitsion jozibadorlik — investitsiyalar rentabelligi va risklarning asosiy kutayotgan nisbati." [11]
4.	Evgeniya Savina	"Investitsion jozibadorlik — bu minimal risk bilan kapitalni investitsiya qilganda daromad (iqtisodiy effekt) olish imkoni mavjudligi." [12]
5.	Y.A.Yuxtanova, A.V.Bratenkova.	"Investitsion jozibadorlik — mustaqil iqtisodiy kategoriya; unga faqat moliyaviy barqarorlik emas, balki mahsulot yoki xizmat raqobatbardoshligi, mijozlar yo'nalishlari, xodimlar sodiqligi va innovatsion faoliyat ham kiradi." [13]
6.	D.A.Endovskiy V.A.Babushkin N.A.Baturina	"Investitsion jozibadorlik — bu aktivlar operatsiyalarining daromadliligi, iqtisodiy potentsial va investitsiyaviy risklarning o'zaro bog'liq to'plami, ya'ni sub'ektning raqobatbardosh muhitda barqaror rivojlanish salohiyati." [14]
7.	N.D.Guskova I.N.Krakovskaya Y.Y.Slushkina V.I.Makolov.	"Investitsion jozibadorlik — bu alohida korxona, sanoat tarmog'i, hudud yoki butun mamlakat uchun investitsiyalarni jalb etish mumkinligini, rentabellik va risk darajasini birlashtirgan integrativ xarakteristika." [15]
8.	E.S.Lobansev I.I.Royzman.	"Investitsion jozibadorlik sub'ekti (korxona) yoki ob'jektning investitsiyalarni jalb qilishga salohiyati, uning ob'ektiv xususiyatlari va istiqbolli imkoniyatlari to'plami." [16]
9.	R.B. Vilhutska.	"Investitsion jozibadorlik — bu korxonaning bo'lishi mumkin bo'lgan kelajakdagi bozor qiymatini (aksiya qiymatini) prognozlash asosida baholash usuli bo'lib, bu investor uchun uning jozibadorligini ko'rsatadi." [17]

1 Berilgan ta'riflar asosida muallif tomonidan shakllantirildi




10.	V. Lunkevych	“Investitsion jozibadorlik”ni uch asosiy toifa: resurslardan samarali foydalanish, bozor pozitsiyasi va rivojlanish salohiyati jihatidan baholaydi. Ya’ni, bu investorga nisbatan resurs, strategik va bozor jihatdan jozibadorlik ko’rsatkichi.[18]
11.	O.Melnyk.	“Investitsion jozibadorlik — hududning ijtimoiy-iqtisodiy quvvati hamda resurslari asosida investitsiya oqimini jalb qilish imkoniyatidir.”[19]
12.	Sherzod Mustafakulov	“Investitsion jozibadorlik — hududning ijtimoiy-iqtisodiy quvvati hamda resurslari asosida investitsiya oqimini jalb qilish imkoniyatidir.”[20]

Keltirilgan 1-jadval shuni ko’rsatadiki, investitsion jozibadorlik tushunchasi iqtisodiy mazmuniga ko’ra yagona yondashuv bilan cheklanmaydi. Turli mualliflar ushbu kategoriyani risk va daromad nisbatlari, resurslardan foydalanish samaradorligi, institutsional muhit sifati hamda rivojlanish salohiyati kabi jihatlar orqali talqin qilgan. Bu esa investitsion jozibadorlikning ko’p omilli va murakkab iqtisodiy hodisa ekanligini tasdiqlaydi. Jadvalda keltirilgan ta’riflar asosida shuni qayd etish mumkinki, investitsion jozibadorlik nafaqat moliyaviy barqarorlik yoki joriy rentabellik bilan, balki subyektning uzoq muddatli rivojlanish imkoniyatlari, bozor pozitsiyasi va boshqaruv sifatini ham o’z ichiga oladi. Ayrim yondashuvlarda ushbu tushuncha investor manfaatlari nuqtayi nazaridan baholansa, boshqalarida u hudud, tarmoq yoki korxonaning strategik ustunliklarini ifodalovchi integral ko’rsatkich sifatida qaraladi. Shuningdek, ta’riflar tahlili investitsion jozibadorlikni baholashda faqat bitta mezonga tayanish yetarli emasligini ko’rsatadi. Aksincha, iqtisodiy, institutsional va bozor omillarining o’zaro uyg’unligi investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlarini belgilab beradi. Shu bois investitsion jozibadorlikni kompleks yondashuv asosida o’rganish keyingi tadqiqotlar uchun muhim nazariy asos bo’lib xizmat qiladi.

Investitsion jozibadorlik iqtisodiy tadqiqotlarda murakkab va ko’p qirrali tushuncha sifatida talqin qilinadi. Mazkur kategoriya faqatgina alohida iqtisodiy subyekt yoki loyiha samaradorligini emas, balki mamlakat, hudud hamda tarmoqlar miqyosida shakllanadigan umumiy iqtisodiy muhitni ham o’zida mujassamlashtiradi. Shu sababli investitsion jozibadorlikni tahlil qilishda uni turli iqtisodiy darajalar kesimida ko’rib chiqish ilmiy jihatdan muhim hisoblanadi. Amaliy va nazariy tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, investor qarorlariga ta’sir etuvchi omillar mazmuniga ko’ra bir xil bo’lmay, ular makroiqtisodiy, mezo-iqtisodiy hamda mikro-iqtisodiy darajalarda namoyon bo’ladi. Har bir daraja investitsiya jarayonining muayyan jihatlarini aks ettirib, ularning o’zaro uyg’unligi investitsiya oqimlarining barqarorligini ta’minlaydi. Aynan ushbu yondashuv investitsion muhitni tizimli baholash imkonini beradi.

Shu nuqtayi nazardan, investitsion jozibadorlik tushunchasining turli darajalardagi talqinlari quyidagi rasmda umumlashtirilgan holda keltirilgan bo’lib, unda makro, mezo va mikro darajalarda shakllanadigan asosiy omillar o’zaro bog’liqlikda yoritilgan (1-rasm).



1-rasm. Investitsion jozibadorlikning makro, mezo va mikro darajalarda shakllanish omillari²

2 Muallif tadqiqotlari asosida shakllantirildi



Mazkur rasmda investitsion jozibadorlik tushunchasi makroiqtisodiy, mezoiktisodiy va mikroiktisodiy darajalar kesimida tizimli tarzda yoritilgan. Ushbu yondashuv investitsiya jarayonining ko'p qirrali xususiyatini ochib beradi hamda investor qarorlarini shakllantiruvchi omillarning ierarxik tuzilmasini aks ettiradi. Har bir daraja investitsiya muhitining muayyan jihatini tavsiflaydi va o'zaro bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Makroiqtisodiy daraja investitsion jozibadorlikning asosiy poydevori sifatida namoyon bo'ladi. Bu bosqichda mamlakat miqyosida shakllanadigan iqtisodiy, siyosiy va institutsional omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Makroiqtisodiy barqarorlik investitsiyalar uchun prognoz qilinadigan va ishonchli muhit yaratadi. Inflyatsiya darajasi, iqtisodiy o'sish sur'atlari hamda makrobalans ko'rsatkichlari investorlar tomonidan riskni baholashda muhim mezon hisoblanadi. Siyosiy barqarorlik, xavfsizlik, mulk daxlsizligi va kapital himoyasi investitsion qarorlarning mustahkam asosini tashkil etadi. Huquqiy va institutsional muhit esa shartnomalarning bajarilishi, sud tizimi mustaqilligi hamda davlat organlari faoliyatining shaffofligi orqali namoyon bo'ladi. Davlat investitsiya siyosati va xalqaro integratsiya darajasi mamlakatning global kapital bozoridagi o'rnini belgilaydi.

Mikroiqtisodiy daraja alohida korxona yoki investitsiya loyihasi miqyosida shakllanadi. Bu darajada investitsiyaning bevosita iqtisodiy samaradorligi baholanadi. Korxonaning moliyaviy barqarorligi, rentabellik va likvidlik ko'rsatkichlari kapitalning qaytish ehtimolini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Biznes-modelning puxtaligi va strategiyaning aniqligi korxonaning bozor sharoitlariga moslashuvchanligini belgilaydi. Boshqaruv sifati resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi, texnologik daraja esa ishlab chiqarish samaradorligi va raqobatbardoshlikni oshiradi. Ushbu bosqichda investitsion jozibadorlik asosan kutilayotgan daromad va risk darajasi o'rtasidagi nisbat bilan belgilanadi.

Mezoiktisodiy daraja hudud va tarmoqlar kesimida shakllanib, makro va mikro darajalar o'rtasida bog'lovchi bo'g'in vazifasini bajaradi. Hududiy infratuzilma, jumladan transport, energetika va kommunikatsiya tarmoqlari investitsiya loyihalarining samarali amalga oshirilishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mehnat va tabiiy resurslar salohiyati ishlab chiqarish imkoniyatlarini belgilaydi. Shuningdek, hududiy boshqaruv sifati, mahalliy institutsional muhit va tarmoq rivojlanganlik darajasi investorlar uchun muhim omil hisoblanadi. Shu bois investitsion jozibadorlikni baholashda hududiy rivojlanish nuqtayi nazari ham alohida e'tiborga olinishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Investitsion jozibadorlik tushunchasining iqtisodiy mohiyati kompleks va ko'p darajali kategoriya sifatida ochib berildi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, investitsion jozibadorlik faqat moliyaviy ko'rsatkichlar bilan cheklanmay, institutsional muhit sifati, hududiy infratuzilma, innovatsion salohiyat hamda boshqaruv samaradorligi bilan chambarchas bog'liqdir. Klassik, neoklassik, keynsiyona va institutsional nazariyalar integratsiyasi ushbu tushunchaning zamonaviy iqtisodiy mazmunini chuqurroq anglash imkonini beradi. Makro, mezo va mikro darajalarda shakllanadigan omillarning o'zaro uyg'unligi investitsiya oqimlarining barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi asoslab berildi. Tadqiqot natijalari hududiy va tarmoq darajasida investitsion muhitni baholashda tizimli yondashuvni qo'llash zarurligini ko'rsatadi. Olingan ilmiy xulosalar investitsion jozibadorlikni oshirishga qaratilgan strategik qarorlar ishlab chiqishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Конец формы

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Marshall, A. Principles of Economics. London: Macmillan and Co., 1890 (8th edition, 1920). [https://eet.pixel online.org/files/etranslation/original/Marshall, %20Principles%20of%20Economics.pdf](https://eet.pixel online.org/files/etranslation/original/Marshall,%20Principles%20of%20Economics.pdf)
2. Porter, M. E. The Competitive Advantage of Nations. New York: The Free Press, 1990.
3. Krugman, P. Geography and Trade. Cambridge, MA: MIT <https://ru.scribd.com/document/484166171/Paul-Krugman-Geography-and-trade>
4. Keynes, J. M. (1936). The General Theory of Employment, Interest and Money. London: Macmillan.
5. Fisher, I. (1930). The Theory of Interest. New York: Macmillan.
6. North, D. C. (1990). Institutions, Institutional Change and Economic Performance. Cambridge: Cambridge University Press.
7. Mustafakulov, S. (2020). Hududiy investitsion siyosat va iqtisodiy rivojlanish. Toshkent: "Iqtisodiyot" nashriyoti.
8. Валинурова Л.С., Казанова О.В. Инвестиционная привлекательность предприятия: сущность, факторы и методы оценки. — Москва: Финансы и статистика, 2010
9. Теплова Т.В. Финансовый менеджмент: управление капиталом и инвестициями— Москва: Издательство Юрайт, 2012.
10. Савина Э.В. Инвестиционные риски и методы их минимизации.— Москва: Экономика, 2011.
11. Эндовитский Д.А., Бабушкин В.А., Батурина Н.А. Инвестиционная привлекательность: потенциал, риски и устойчивое развитие— Воронеж: ВГУ, 2013.
12. Гускова Н.Д., Краковская И.Н., Слушкина Й.Й., Маколов В.И. Инвестиционная привлекательность регионов: теория и практика оценки. — Москва: Инфра-М, 2015.



13. Лобансев Э.С., Ройзман И.И. Инвестиционный климат и инвестиционная привлекательность субъектов хозяйствования— Москва: Наука, 2012.
14. Вилкхутская Р.Б. Оценка инвестиционной привлекательности компании на основе рыночной стоимости. Финансы и кредит. — 2016. №18.
15. Lunkevich V. Strategic investment attractiveness of enterprises. Warsaw: Economic Publishing House, 2014.
16. Melnyk O. Investment attractiveness of regions in conditions of economic transformation. Regional Economy Journal. — 2015. — №2.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
